



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

shaxslar bilan aloqaga ham kirishadi. Suhbat jarayonida ba'zan so'zlar orqali ifoda etilmay qolgan fikr, qarashlar ko'z orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli, ushbu a'zo tevarak-atrofdagi voqelikni idrok etishning asosiy vositasi sanaladi. Insonning qo'rquvi, ajablanishi, nafrati, muhabbati, qayg'usi ayniqsa, ko'zlarda yaqqol namoyon bo'ladi. *Ko'z* maqollarda faol tarzda qo'llanuvchi somatizm hisoblanadi. *Ko'z* somatizmi maqollarda idrok, kuzatish, mulohaza yuritish, anglash bilan bog'liq turli semalarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari ziyraklik, fahm-farosat singari tushunchalar bilan ham bog'liqlik hosil qiladi. Shuningdek, ko'zlarga samimiylik va nekbinlik ramzi sifatida qoraladi.

Ishning o'zini bilguncha, ko'zini bil.

Mehnatning ko'zini topgan, Boylikning o'zini topar.

Aqlning ko'zi –naqlning ko'zi singari paremlar tarkibida kelib, metafora asosida ko'chma ma'no hosil qiladi va *uddaburonlik*, *ishbilarmonlik* kabi semalarni ifoda etishga xizmat qiladi.

Tilimizdagi Otalar so'zi – aqlning ko'zi maqolida esa ushbu somatizm insonning butun tafakkur qilish qobiliyatini o'zida jamlaydi. Maqoldagi *aql ko'zi* bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tajriba, bilim, donishmandlik ramzidir.

Shuningdek ushbu somatizm ayrim paremlar tarkibida *ko'zi och*, *ko'zi to'ymas*, *ochko'z kabi* frazeologik birlik sifatida qo'llanadi va *badnafslilik*, *ochko'zlik* semalarini namoyon etadi: Och ko'zni tuproq to'ydirar./ Gadoning xurjuni to'lsa ham, ko'zi to'ymas kabi.

O'zbek mentalitetida ochko'zlik, badnafslilik singari illatlar qattiq qoralanadi. Hattoki nafsni yengish, unga qarshi doimiy kurash olib borish nafaqat folklor namunalarida, balki muqaddas kitobimiz Qur'oni karimda ham aytib o'tiladi. Moddiyatga va boylikka ruju qo'ymaslik targ'ib qilinadi.

Shu bilan birga ba'zi maqollar tarkibida ushbu somatizm *aql-hush* ma'nosida ham qo'llanganiga guvoh bo'lamiz: *Yosh yigitning ko'zi bilan qiz olma*. Ushbu maqolda *yosh yigitning ko'zi* deganda, aqli, tafakkuri nazarda tutilmoqda.

Ochning ko'zi ekmakda, to'qning ko'zi hikmatda./ Qassobning ko'zi – semizda, chanqoqning ko'zi – qimizda./ Ochning ko'zi – nonda, to'qning ko'zi – tomida kabi paremalarda ushbu somatizm *o'y-xayol*, *kuchli xohish-istak* ma'nolarini ifoda etishga xizmat qiladi.

Sevgi, mehr-oqibat, muhabbat singari mavzulardagi maqollarda *mehr* tushunchasi ko'z somatizmi bilan bog'lab talqin qilinadi. Jumladan:

Sevgi degan ikki ko'zda./ Ko'z ko'zga tushsa, mehr qo'zg'alar./ Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmas kabi paremik birliklarda fikrimiz isbotini ko'ramiz. Ya'ni bu yerda ko'zga mehr-oqibat manbayi sifatida qaralganiga guvoh bo'lamiz.

Hurmat-ehtirom ma'nosini ifoda etish uchun ushbu somatizm maqollar tarkibida *ko'zdan issiq*, *ko'z ustida* kabi frazeologik butunlik ko'rinishida qo'llanadi

va biror-bir shaxs yoki narsaning qadrli, aziz va hurmat-izzatga loyqligini ifoda etadi: Mehmon joyi – ko‘z ustida./ Mehmon ko‘zdan issiq.

Tilimizdagi *qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarmoq yoki ko‘z chiqarmoq* kabi iboralar ham paremik birliklar tarkibida uchrashiga guvoh bo‘lamiz va bunda ushbu birlik orqali *nojo‘ya xatti-harakat qilib qo‘ymoq* ma‘nosi ifodalanadi: Toza yasovul ko‘z chiqarar.

Xalqimizda Asragan ko‘zga cho‘p tushar maqoli bor. Ushbu maqolda ko‘z somatizmi bekorga qo‘llanmagan. Chunki ko‘z insonning eng nozik tana a‘zosi hisoblanadi. Agar uni ehtiyot qilmasa ozgina nojo‘ya xatti-harakat ham unga zarar yetkazishi mumkin. Insonning eng qadrli, asarab-avaylab keladigan narsasiga kutilmaganda zarar yetib qolsa, ushbu maqol ishlatiladi. Bundan tashqari ko‘zning *noziklik* semasi biror narsa-buyumni *ko‘z qorachig‘idek* asramoq iborasida ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Kuzatishlarimizdan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, ko‘z somatizmi ayrim maqollarda yakka holda, ayrim maqollarda esa ma‘lum bir frazeologik butunlik ko‘rinishida qo‘llanadi va turli-tuman semalarni namoyon etish uchun xizmat qiladi. Jumladan, biz ko‘z somatizmi ishtirokidagi maqollarni *donolik, ochko‘zlik, mehr-muhabbat, hurmat-ehtirom, ehtiyotsizlik* kabi semantik maydonlarga birlashtira olamiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, somatizm komponentli maqollar o‘zida o‘zbek xalqining jamiyatda qadrlanadigan itimoiy, kommunikativ, ma‘naviy-axloqiy, maishiy va intellektual fazilatlarini jamlaydi. Maqollar tarkibidagi somatizmlar majoziy ta‘sirni kuchaytirib, o‘zbek so‘zlovchilari lingvistik dunyoqarashining hal qiluvchi qismiga aylangan narsa, hodisa va vaziyatlarning jonli va aniq tasvirini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Бегматов Э. ва бошқалар. (2006) *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилд. 2-жилд.* Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти.
- Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. (1990) *Ҳикматнома.*
- Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. (2001) *Маънолар маҳзани (ўзбек мақолларининг изоҳли лугати).* Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.
- Karimov Sh.(2015) *O‘zbek maqollarining semantik xususiyatlari.* Fan.
- Ҳожиёв А.(2002) *Тилишунослик терминлари изоҳли лугати.* Мехнат.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA GASTRONOMIK BIRLIKLAR VA ULARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Bibish Jo‘rayeva*
Feruza Raxmatillo耶eva*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan gastronomik birliklar va ularning lingvomadaniy mazmuni ilmiy tahlil qilinadi. Gastronomlar xalqning qadimiy turmush tarzi, dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari hamda milliy tafakkurida muhim o‘rin tutadi. Maqollarda non, osh, tuz, choy, meva va boshqa gastronomik birliklar orqali xalqning axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari, tarbiyaviy xulosalari ifoda etiladi. Ushbu maqolada gastronomik birliklar nafaqat til birliklari sifatida, balki xalqning madaniy xotirasi va milliy o‘zligini aks ettiruvchi unsurlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqollarda uchraydigan oziq-ovqat nomlari orqali o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, saxovat, qanoat kabi fazilatlarini yoritiladi. Lingvomadaniy yondashuv asosida maqollar tahlil qilinib, ular xalqning ijtimoiy-madaniy hayotini tadqiq etishda muhim manba ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalq maqollari, gastronomik birliklar, lingvomadaniy tahlil, milliy tafakkur, non konsepti, osh va choy ramzi, til va madaniyat uyg‘unligi, paremiologiya, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar, o‘zbek xalq dunyoqarashi

Gastronomic Units In Uzbek Proverbs And Their Linguocultural Analysis

Abstract

This article analyzes the gastronomic units found in Uzbek proverbs and explores their linguo-cultural meanings. Gastronyms play an important role in reflecting the traditional lifestyle, worldview, moral values and national thinking of the Uzbek people. Proverbs that mention bread, pilaf, salt, tea, fruits and other names reveal ethical concepts, social relations and educational lessons. In this study, gastronomic units are considered not only as linguistic elements but also as cultural symbols that embody collective memory and national identity. Moreover, the analysis highlights how food-related expressions in proverbs illustrate Uzbek hospitality, generosity and modesty. By applying a linguo-cultural approach, the article demonstrates that proverbs containing gastronomic units serve as significant sources for understanding the socio-cultural life of the Uzbek nation.

* Filologiya fanlari doktori, professor Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari. bibish.jrayeva@mail.ru

* Navoiy davlat universiteti, tayanch doktorant, raxmatillo耶evaferuza@gmail.com

Keywords: Uzbek proverbs, gastronomic units, linguo-cultural analysis, national thinking, bread concept, symbolism of pilaf and tea, language and culture interaction, paremiology, socio-cultural values, uzbek worldview

O'zbek xalq maqollari xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va bebaho qatlamlaridan biridir. Ular asrlar davomida xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar, dunyoqarashi hamda ma'naviy tajribasini o'zida mujassamlashtirib kelmoqda. Maqollarda inson hayotining barcha sohalari – mehnat, ta'lim-tarbiya, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, gastronomik birliklar ham o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodida oziq-ovqat mahsulotlari va taom nomlari bilan bog'liq obrazlarning ko'pligi xalqning iqtisodiy hayoti, ma'naviy dunyosi hamda milliy madaniyatidan dalolat beradi.

O'zbek maqollarida non, osh, tuz, choy, meva, sut kabi gastronomik birliklar tez-tez uchraydi. Ushbu birliklar nafaqat oddiy ovqatlanish vositasi sifatida, balki xalq tafakkurida muayyan ramziy ma'no kasb etuvchi konseptlar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, non – hayot va rizq timsoli, osh – birlik va mehmondo'stlik ramzi, tuz – sadoqat va do'stlik belgisidir. Shu bois gastronomik birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish xalqning milliy xotirasi va tafakkurini tahlil etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda tilshunoslikda til va madaniyat uyg'unligini o'rganishga qaratilgan lingvomadaniy yondashuv keng qo'llanilmoqda (Maslova, 2001). Bu yondashuvga ko'ra, til birliklari millatning madaniy qadriyatlar va dunyoqarashini ifodalovchi ramzlar sifatida tahlil qilinadi. Shu jihatdan o'zbek xalq maqollaridagi gastronomik birliklar ham xalqning qadimiy turmush tarzi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va taom nomlari asosida shakllangan maqollar xalq tafakkurida alohida o'rin egallaydi. Chunki oziq-ovqat inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, u qadimdan madaniyat va urf-odatlarda muhim ramziy ahamiyat kasb etgan. O'zbek maqollarida non eng ko'p uchraydigan gastronomik birliklardan biridir. *“Non ham non, ushog'i ham non”*, *“Nonga e'tibor – elga e'tibor”* kabi maqollar xalqning nonni rizq, baraka va hayot manbai sifatida qadrlashini ko'rsatadi. *“Insonlar qadim zamonlardan beri nonga nisbatan alohida munosabatda bo'lib kelishgan. Nonni e'zozlab, hattoki uni quyoshga, oltinga, hayotga qiyoslab kelishgan. Nonning sharafiga madhiyalar, ibratomuz asarlar: hikoya, ertak hamda she'rlar yozishgan (Ibatova, 2022, 75-bet). Zero, non konsepti o'zbek madaniyatida muqaddas tushunchalar bilan bog'langan bo'lib, xalqning dunyoqarashida nonni qadrlash, uni isrof qilmaslik eng muhim axloqiy tamoyillardan biri sifatida qoraladi. Shuningdek, “Mehnatli osh osh bo'lar, mehnatsiz osh – tosh” yoki “Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar”, “Eldan osh yesang, elga osh ber”, “Yo'qcha*

guruch osh bo'ladi, mehmon ko'ngli shod bo'ladi", *"Osh – mehmon bilan aziz"* kabi maqollar milliy taom – palovning ramziy ahamiyatini ochib beradi. Osh xalq orasida birlik va mehmondo'stlikning timsoli sifatida qaraladi. Mehmon chaqirilganda yoki katta yig'inlarda osh pishirilishi milliy an'ana sifatida xalq hayotida mustahkam o'rin egallagan. Shu sababli oshga doir maqollar ham o'zbek madaniyatida ijtimoiy birdamlik, do'stlik va saxovat timsoli sifatida shakllangan.

Maqollarda uchraydigan boshqa gastronomik birliklar ham o'ziga xos ramziy ma'no kasb etadi. Masalan: tuz – sadoqat, do'stlik va minnatdorchilik ramzi (*"Tuz totgan joydan o'zingni tortma"*, *"Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber"*, *"Tuzini yeb, tuzlig'iga tupurma"*). Choy – suhbat, samimiyat va yaqinlik belgisi (*"Choy ustida ko'ngil ochilar"*, *"Shirin choying bo'lmasa, shirin tiling bo'lsin"*). Meva – farovonlik va baraka ramzi (*"Hunarli yigit – mevali daraxt"*, *"Mevali daraxtga har kim ham kesak otar"*,). Sut – poklik va mehribonlik timsoli (*"Sut bilan og'iz chaynagan odamning so'zi toza bo'lar"*, *"Ig'vogarga oq sut ham qora"*, *"Ona yerning tuprog'i – ona sutidan aziz"*).

Shu bilan birga, maqollarda oziq-ovqat mahsulotlari xalqning ijtimoiy qadriyatlarini ifodalashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, *"Non borki, jon bor"* maqoli xalqning hayotiy falsafasini ifoda etsa, *"Osh bo'lmasa, to'y bo'lmas"* maqoli ijtimoiy marosimlar va an'analar bilan bog'liq bo'lgan madaniy qadriyatlarni ko'rsatadi.

O'zbek xalq maqollarida gastronomik birliklarni tadqiq etishda ularning faqat semantik ma'nosini ochib berish yetarli emas. Chunki bunday birliklar xalq tafakkurida ramziy va madaniy kod sifatida shakllangan bo'lib, ularni chuqurroq anglash uchun lingvokulturologik va paremiologik yondashuvlarni qo'llash zarur bo'ladi.

Birinchidan, lingvokulturologik yondashuv asosida maqollarda uchraydigan non, osh, tuz, choy kabi birliklar xalq madaniyati va an'alarini aks ettiruvchi ramz sifatida talqin qilinadi. Masalan, nonning muqaddaslik ramzi xalqning diniy va axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yondashuv orqali gastronomik birliklarning xalq xotirasida qanday konseptual ma'no kasb etgani ochib beriladi.

Ikkinchidan, paremiologik yondashuv maqollarni xalq donishmandligi va ijtimoiy tajribasining mahsuli sifatida o'rganadi. Gastronomik birliklarning maqollarda qo'llanish chastotasi, ularning tarbiyaviy, axloqiy va ijtimoiy vazifalarini aniqlash ushbu yondashuvning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'zbek xalq maqollarida uchraydigan gastronomik birliklar xalqning nafaqat ovqatlanish madaniyatini, balki ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi. Ular jamiyatning turmush tarzi, axloqiy me'yorlari va milliy tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, bir nechta ijtimoiy-madaniy funksiyalarni bajaradi.

1. Tarbiyaviy funksiya. Maqollar xalqni halollikka, mehnatsevarlikka, qanoat va to'kinlikka undaydi. Masalan, *"Nonni isrof qilgan — rizqini yo'qotgan"* maqoli